

## BO‘LAJAK XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARINING INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Tojiboyeva Shoxistaxon Komiljonovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qiyuvchisi

### Annotatsiya

Har bir insonning axborotdan foydalanish, uni olish va tasarruf etish huquqi qonun bilan kafolatlangan bo‘lsa-da, bu ayrim ijtimoiy tartibotni, xavfsizlik qoidalarini buzishi qonun bilan taqiqlanadi. Bu esa, ulardan xabardor bo‘lish va ular bilan axborot almashishda ehtiyotkor bo‘lish talab etiladi. Qonun uni bilmaslikdan himoya qila olmagani kabi, turli axboriy tahdidlarga uchrab, yoki yolg‘on axborot ta‘siriga tushib qolish javobgarlikka tortilishi mumkin. Shuning uchun ham ko‘proq xorijiy saytlar va sahifalardan ko‘proq ma‘lumotlar oluvchi, almashuvchi bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarida axborotlarga tahliliy qarash, analitik tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bu ta‘sirlarni oldini olishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** information-analitik, kompetentlik, tajriba, tizim, metodik, konvensiya, xalqaro amaliyot

### Абстракт

Хотя право каждого человека использовать, получать и распоряжаться информацией гарантируется законом, законом запрещено нарушать определенные правила общественного порядка и безопасности. Необходимо знать о них и проявлять осторожность при обмене с ними информацией. Так же, как закон не может защитить его от незнания, он может быть привлечен к ответственности за то, что подвергся различным новостным угрозам или попал под влияние ложной информации. Именно поэтому будущие преподаватели иностранного языка, которые получают и обмениваются большим количеством информации с большего количества иностранных сайтов и страниц, могут предотвратить эти эффекты, развивая навыки аналитического взгляда на информацию и аналитического анализа.

**Ключевые слова:** информационно-аналитический, компетентность, опыт, система, методология, конвенция, международная практика.

### Abstract

Although the right of every person to use, receive and dispose of information is guaranteed by law, it is prohibited by law to violate certain social order and security rules. It is necessary to be aware of them and to be careful when exchanging information with them. Just as the law


cannot protect him from ignorance, he can be held responsible for being exposed to various news threats or being influenced by false information. That is why future foreign language teachers, who receive and exchange more information from more foreign sites and pages, can prevent these effects by developing the skills of analytical view of information and analytical analysis.

**Keywords:** information-analytical, competence, experience, system, methodology, convention, international practice.

Axborotlarga tahliliy munosabatini shakllantirishga doir xorijiy tajribalar asosida bir qator rivojlangan mamlakatlarda nosogʻlom axborot oqimlarining oldini olish, bartaraf etish va unga qarshi kurashishning oʻziga xos qonunchilik tizimi yaratilganligidan dalolat beradi. Jumladan, bu borada xalqaro amaliyotdagi “Kiber jinoyatlar toʻgʻrisida”gi konvensiya, “Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz internet va onlayn resurslarni joriy qilish toʻgʻrisida”gi Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, Germaniyaning “Talabalarni himoyalash toʻgʻrisida”gi, Litvaning “Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy taʼsiridan himoyalash toʻgʻrisida”gi qonunlarini misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, AQSHda oʻn yetti yoshgacha boʻlgan bolalarni jismoniy va ruhiy rivojlanish jarayonida internetning salbiy taʼsiridan himoya qilishni tartibga soluvchi normalarni oʻzida aks ettirgan qonun ham qabul qilinadi. Mazkur qonun “voyaga yetmaganlar uchun zararli boʻlgan rasmlar, tasvirlar, grafiklar, audiomateriallar, videofayllarni internet tarmogʻida joylashtirganlik va tarqatganlik uchun javobgarlik masalalarini nazarda tutdi. Shu bilan bir qatorda qonun ota-onalar, tarbiyachilar, sanoat vakillarining voyaga yetmaganlarni internetdagi salbiy axborotlardan himoya qilishga majburligini belgilab qoʻydi<sup>1</sup>”.

Shuningdek, oʻz navbatida informatsion-analitik kompetensiya metodik jihatdan faoliyatga yoʻnaltirilgan yondashuvga asoslanishni taqozo etadi. Faoliyatga yoʻnaltirilgan yondashuv nuqtayi nazaridan informatsion-analitik kompetensiyaning uch komponentini ajratib koʻrsatish mumkin: vositali, amaliy va mustaqil izlanishga doir (1.1-rasmga qarang).

<sup>1</sup>105th Congress Report House of Representatives 2d Session 105 775 Child online protection act October 5, 1998.



**1.1-rasm. Informatsion-analitik kompetensiya komponentlari**

Vositali komponent axborot bilan ishlashning sodda texnologiyalari bilan ishlashni talab etadi: axborotlarni izlash va to'plash, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish, axborotni tarqatish va axborot xavfsizligini ta'minlash.

Amaliy komponent informatsion-analitik faoliyatni amalga oshirish metod va vositalarini tanlashda bo'lajak xorijiy til o'qituvchilariga erkinlik va mustaqillikni taqdim etadi.

Mustaqil izlanishga doir komponent mustaqil ravishda muammoni qo'yish, muammoni hal etish bo'yicha informatsion-analitik faoliyatni amalga oshirish muddatlarini belgilash, axborotlarni izlash jarayonida to'plangan materiallarni tahlil qilish metodlarini aniqlashtirish va tanlash bo'yicha butun bor salohiyatini ishga solishni talab etadi.

Shaxs ijtimoiylashuvi uchun alohida shart-sharoitlarni yaratib beruvchi zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsiy axborot xavfsizligi muammosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. V.I.Zagvyazinskiy ta'kidlab o'tganidek, "yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim olish uchun qulay imkoniyatlar yaratishi bilan birga, shaxsning ijodiy salohiyatining yo'qolishi, madaniyatsizlikning yuzaga kelishi, mustaqil fikrlash o'rniga fikrning qaramligi xavfini ham keltirib chiqaradi<sup>2</sup>". O'z navbatida mustaqil fikrlay olmaslik informatsion madaniyatning rivojlanmasligiga, axborotlarni tahlil etish malakasining shakllanmasligiga, tanqidiy fikrlashning taraqqiy etmasligiga olib keladi. Fikrning qaramligi irodasizlik, befarqlik, loqaydlik va aniq mo'ljalni olishdan mahrum bo'lishda namoyon bo'ladi. Aynan axborotlarni

<sup>2</sup> Загвязинский В. И. Наступит ли эпоха Возрождения? Стратегия инновационного развития российского образования. 2-е изд. – М.: Логос, 2015. – 44 с.

qayta ishlash va zarur xulosa chiqarish qobiliyatining mavjud emasligi talabalar orasida tayyor ma'lumotlarni ko'chirib olishning keng ommalashuviga olib keladi. Hatto ko'pchilik talabalar nazorat topshiriqlarini bajarishda internetdan tayyor axborotlarni to'g'ri yoki noto'g'riligini o'ylab ham ko'rmasdan ko'chirib javob yozishi odat tusiga aylanib qoldi. I.G.Zaxarova ta'lim jarayonida axborotlashtirishning salbiy ta'siri sifatida "didaktik materiallarning yuzaki ishlab chiqilayotganligi, test topshiriqlaridan haddan ziyod ko'p foydalanilishi, axborot olishning osonligi" kabilarni ko'rsatib o'tadi<sup>3</sup>.

Axborot muhitining tobora kuchayib borishi shaxs ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab axborot tahdidlarini yuzaga keltiradi. Shuning uchun shaxs axborot xavfsizligi muammosini tadqiq etish shaxs ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy tahdidlar, ya'ni ijtimoiy omillar (ekstremizm va intolerantlik, ksenofobiya, agressiya va h.k.)ni ham tahlil etishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy tahdidlarni ham informatsion tahdidlari sirasiga kiritish lozimligini ko'rsatadi.

Axborot va axborot infratuzilmasi bilan bog'liq, shuningdek, axborotlar orqali shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy xavf-xatarlarning yuzaga kelish manbalarini tahlil etish asosida ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Axborot mazmuniga aloqador tahdidlar – ongni manipulyatsiya qilish va targ'ibot uchun mo'ljallangan axloqsiz, salbiy, qonunga zid va zararli mazmun-mohiyatga ega materiallar.
2. Internet va boshqa axborot-kommunikatsiya vositalariga psixologik tobelikni keltirib chiqaruvchi tahdidlar.
3. Axborotni izlash, tanlash, qayta ishlash, tizimlashtirish va uzatish ko'nikmasining shakllanmaganligi, informatsion madaniyatning mavjud emasligi natijasida yuzaga keluvchi tahdidlar.
4. Inson salomatligiga zarar yetkazuvchi tahdidlar (masalan, axborotlar bilan ishlashda ergonomik talablarga rioya qilinmasligi).

O'z tabiatiga ko'ra tahdidlar subyektiv-obyektiv tavsifga ega. Axborot obyektiv reallikdir. Tahdid ham obyektiv reallik sifatida ma'lum bir sharoitida zararli omil bo'lib xizmat qiladi. Subyektning munosabati va idrok etishi bilan bog'liqlikda tahdid vaziyati shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatish darajasi bilan bog'liq. Agar shaxs vaziyatni tanqidiy baholay olsa, zararli axborot ta'siriga qarshi tura oladi.

Global informatsion makonda bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari ongiga ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval ularning ijtimoiy xulqida ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish, nimadandir cho'chish va shu tufayli ijtimoiy munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish hislarining namoyon bo'lishidir.

<sup>3</sup> Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании // Образование и наука. – М., 2015. - № 5. – С.108.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 105th Congress Report House of Representatives 2d Session 105 775 Child online protection act October 5, 1998.
2. Загвязинский В. И. Наступит ли эпоха Возрождения? Стратегия инновационного развития российского образования. 2-е изд. – М.: Логос, 2015. – 44 с.
3. Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании // Образование и наука. – М., 2015. - № 5. – С.108.

